Ismailova Nasiba Komildjanovna	
КЭРРИ-ТРЕЙД В ЭПОХУ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ШОКОВ: УРОКИ БЛИЖНЕВОСТОЧНОГО КОНФЛИКТА.....	708
Сулейманов Ильнур Радикович	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RESIRKULYATSION AKVAKULTURA TIZIMLARINING (RAS) STRATEGIK AHAMIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	715
Nazokat G'ulomova	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	719
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	724
Xazratov Abror Panjiyevich	
AUDITORLIK DALILLARI VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH JARAYONINING MUHIM JIHLATLARI.....	730
G'aniev Z.U.	
ПОВЫШЕНИЕ ПОРОГА ПЕРЕХОДА НА НДС КАК НАЛОГОВЫЙ ИНСТРУМЕНТ СТИМУЛИРОВАНИЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	736
Буранова Лола Вахобовна	
Садиков Искандар Гайратович	



IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	744
Turgunbayev Utkir Begimovich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI, MAQSADI VA INSTITUTSIONAL O'RNI	749
Saitmuratov Saitmurat Masharip o'g'li	
KELAJAK STRATEGIYASI INNOVATSION HR-SIYOSATLAR VA YOSH KADRLAR BILAN ISHLASHNING KONSEPTUAL MODELII	755
Abiyev Jahongir Ne'matovich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT O'TKAZISH JARAYONINING USLUBIY TAHLILI	761
Saitmuratov Saitmurat Masharip o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	767
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
ОПЫТ ВЕДУЩИХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В НАЛОГООБЛОЖЕНИИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ.....	771
Курбанов Рустам Раджапович	
FOND BOZORI ORQALI XUSUSIYLASHTIRISH: POLSHA TAJRIBASI, O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	775
Chinqulov Qahramon Ravshanovich	
SAMARQAND QISHLOQLARIDA "OILAVIY MEHMON UYLARI" (GUEST HOUSES) VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: ISHCHI KUCHI VA KAPITAL NAZARIY TAHLILI.....	781
Ozoda Pardayeva	
YASHIL INNOVATSIYALARNING O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY ROLI	787
Mamatsoliyev Muhammadjon	
SUV TANQISLIGI SHAROITIDA SOHANI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISH (XORIJ TAJRIBASI).....	793
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	



SUV TANQISLIGI SHAROITIDA SOHANI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISH (XORIY TAJRIBASI)

Akbarova Shaxnoza Yakub qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: sh.akbarova1996@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada suv tanqisligi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati va ahvoli yoritilgan. Muallif tomonidan Avstraliya, Yaponiya, AQSh, Hindiston, Isroil, Xitoy, Turkiya va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlarning suv xo'jaligini raqamlashtirishdagi ilg'or tajribalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda suv xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, "Aqlli suv" qurilmalari orqali suv sarfini onlayn monitoring qilish imkoniyatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan loyihalar haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish va raqamli boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: suv tanqisligi, raqamli texnologiyalar, suv xo'jaligini boshqarish, IoT, sun'iy intellekt, sensor tizimlari, dronlar, "Aqlli suv" qurilmalari, raqamlashtirish, innovatsion boshqaruv.

Abstract. The article highlights the importance and current state of implementing digital technologies in the management of water resources under conditions of water scarcity. The author analyzes the advanced experience of countries such as Australia, Japan, the United States, India, Israel, China, Turkey, and the European Union in digitalizing the water sector. The article also presents information about Uzbekistan's ongoing digitalization efforts in the water sector, including the installation of "Smart Water" devices for online monitoring of water use and collaborative projects with international organizations. The research results provide practical recommendations for enhancing water use efficiency and improving digital management systems adapted to the conditions of Uzbekistan.

Keywords: water scarcity, digital technologies, water management, IoT, artificial intelligence, sensor systems, drones, "Smart Water" devices, digitalization, innovative management.

Аннотация. В статье освещено значение и состояние внедрения цифровых технологий в управление водными ресурсами в условиях дефицита воды. Автором проанализирован передовой опыт таких стран, как Австралия, Япония, США, Индия, Израиль, Китай, Турция и Европейский Союз, в области цифровизации водного хозяйства. В статье также представлены сведения о реализации цифровизации в сфере водного хозяйства Узбекистана, включая установку устройств «Умная вода», обеспечивающих онлайн-мониторинг водопользования, а также о проектах, реализуемых в сотрудничестве с международными организациями. Результаты исследования включают практические предложения по повышению эффективности использования водных ресурсов и совершенствованию цифровой системы управления в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: дефицит воды, цифровые технологии, управление водным хозяйством, IoT, искусственный интеллект, сенсорные системы, дроны, устройства «Умная вода», цифровизация, инновационное управление.

KIRISH

Suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish va barqaror rivojlanishni ta'minlash zamonaviy qishloq xo'jaligi hamda ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda suv tanqisligi ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, suv xo'jaligini raqamlashtirish — bu faqat texnologik yangilanish emas, balki strategik islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida suv resurslari bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va boshqarish jarayonlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ularning asosiy maqsadi — suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, suv yo'qotishlarini kamaytirish, adolatli taqsimot va tezkor boshqaruvni yo'lga qo'yishdir.



Mazkur tadqiqotning maqsadi — xorijiy davlatlarning suv xo'jaligini raqamlashtirishdagi ilg'or tajribalarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi iqtisodiyot, ekologiya va agrar siyosat kesishgan nuqtada joylashgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo suv tanqisligi kuchayib borayotgan sharoitda global miqyosda ham, mintaqaviy darajada ham ko'plab ilmiy tadqiqotlarning asosiy obyektiga aylangan. Suv xo'jaligi tizimidagi innovatsion jarayonlar va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri Z.S. Shoxujaeva, A.S. Eshev, N.O'. Murodova va F.S. Temirova (2023) tadqiqotlarida ham keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar suv tizimida innovatsion iqtisodiyot elementlarini joriy etish suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini qayd etadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar (FAO, World Bank, ICARDA, GIZ, KOICA) hisobotlari, hukumat dasturlari hamda xorijiy tajriba tahlil qilindi. Tadqiqot davomida taqqoslama tahlil, tizimli yondashuv, empirik kuzatuv va analitik tahlil metodlaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli boshqaruv tizimlari orqali suvdan foydalanishni hisobga olish, suv sarfini monitoring qilish, resurslarni real vaqt rejimida nazorat qilish amaliyoti ko'plab rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

TAHLIL NATIJALARI

Suv xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha bir qator xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi. Quyida ayrim davlatlarning ilg'or tajribalarini keltirib o'tamiz:

Xususan, Avstraliya [3] suv resurslari yetishmasligi muammosiga duch kelgan davlatlardan biri bo'lib, bu holat raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning keng qo'llanishiga olib kelmoqda. Avstraliyaning "Rubicon Water" kompaniyasi suv boshqaruvida yetakchi hisoblanadi. Bugungi kunda Avstraliya suv tejankorligi bo'yicha sensor texnologiyalaridan keng foydalanadi. Bu sensorlar tuproqning real vaqtdagi namlik darajasini aniqlab, sug'orish hajmini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Ob-havo prognozlari va sun'iy intellektga asoslangan tizimlar fermerlarga suv iste'molidan minimal darajada foydalanishga yordam beradi. Rubicon Water texnologiyasini joriy qilish orqali sug'orishda suv yo'qotishlari 30–50% gacha kamaydi, sug'orish samaradorligi 40–60% gacha oshdi, suv taqsimotidagi inson omili va xatolar mintaqalarda 70% gacha kamaytirildi, elektroenergiya sarfi va nasoslar ishlashidagi quvvat tejalishi kuzatildi.

Yaponiyada [4] qishloq xo'jaligini avtomatlashtirish va raqamlashtirishga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, robot traktorlar, dronlar va boshqa zamonaviy texnologiyalar qo'llanilib, suv resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanadi. Bu texnologiyalar suvni tejash va samarali boshqarishga yordam beradi.

Yaponiya suv resurslarini boshqarishda ilg'or texnologiyalarni qo'llashda yetakchi davlatlardan biridir. Yaponiya hukumatining "Aqlli suv tizimlari"ni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari tufayli, u yerda IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Bu texnologiyalar yordamida suvning sifati, sarfi va resurslarning taqsimoti real vaqtda monitoring qilib turiladi.

AQSh [6] suv xo'jaligini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng qo'llaydi. AQShda aqlli sensorlar orqali suv iste'moli monitoring qilinadi va real vaqtda ma'lumot olinadi. Ko'plab irrigatsion tumanlarda Supervisory Control and Data Acquisition (SCADA) tizimlari suv resurslarini samarali boshqarish uchun foydalaniladi. AQShning Kaliforniya va Texas kabi shtatlarida suv ta'minotini boshqarish va suv resurslarini tejash uchun raqamli tizimlar joriy etilgan. Aqlli suv tarmoqlari yordamida suv sarfini optimallashtirish va suv tarmoqlaridagi yaroqsiz holatlar, masalan, oqishlar va oqimlarni tezda aniqlash mumkin bo'ladi.

Amerikada IoT sensorlar yordamida tuproq namligi, suv oqimi, bosim va boshqa parametrlar real vaqt rejimida kuzatiladi. Masalan, Teralytic kompaniyasi ishlab chiqqan sensorlar tuproqdagi namlik, sho'rlanish va oziqlanish holatini o'lchab, bulutli platformalarga yuboradi. Bu orqali fermerlar suv resurslaridan oqilona foydalanadi va zarur joylarda sug'orishni amalga oshiradi.

Hindistonda [7] suv tejashga yo'naltirilgan loyihalar va raqamli texnologiyalar quyidagi tarzda amalga oshiriladi, ya'ni "Jal Shakti Abhiyan" dasturi doirasida sug'orish jarayonlarida raqamli platformalar va GPS texnologiyalari orqali suvdan samarali foydalanish ta'minlanmoqda. Shuningdek, dronlar va sun'iy intellekt suvni taqsimlashni optimallashtirib turadi.

Hindistonning suv resurslarini boshqarishdagi asosiy muammolaridan biri suvning tartibsiz taqsimlanishi va yo'qolishidir. Shu sababli Hindiston hukumati suvni boshqarishda IoT va raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni boshladi. National Remote Sensing Centre tomonidan ishlab chiqilgan "Soil Moisture and Rainfall



Monitoring System” tizimi yordamida qurg’oqchilikka qarshi kurashish va yer osti suvlarini nazorat qilish uchun sun’iy yo’ldosh yordamida real vaqtda ma’lumotlar olinadi. Shuningdek, “Borewell Monitoring System” dasturi yer osti suvlarining darajasi va sifati haqida ma’lumot beradi, bu esa fermerlarga sug’orish tizimlarini yaxshilashda yordam beradi. Hindistonning bir qator shtatlarida, masalan, Gujarat va Maharashtra, raqamli sug’orish tizimlari orqali suv sarfi va resurslar samarali boshqarilmoqda.

Isroil [8] — bu qurg’oqchilikni yengan va suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etgan yetakchi davlatlardan biridir. Isroilning “Netafim” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan aqlli sug’orish tizimlari butun dunyo bo’ylab keng qo’llanilmoqda. Ushbu Netafim texnologiyasi yordamida suv sarfi 20–50% gacha kamayadi, mehnat, energiya va ozuqa sarfi 15–20% tejaladi va hosildorlik 30–50% gacha yuqorilaydi. Netafim Hindistonda kamida 97 ta fermerni qamrab olgan holda 30,000 akri ulkan “Ramthal” loyihasi orqali jamoaviy tomchilab sug’orishni amalga oshirgan. Yevropa Ittifoqi bilan amalga oshirilgan FIGARO platformasi ham Netafim bilan birga ishlanib, aniq sug’orish, iqlim va tuproq sharoitlari, AI modellari asosida platforma shaklida tatbiq etilmoqda [9].

Isroilning “Drip Irrigation” texnologiyasi ham bu sohadagi innovatsiyalarni o’z ichiga oladi. Bu texnologiya orqali minimal suv sarfi bilan maksimal hosil olish mumkin, bu esa tabiiy resurslarni tejash va qurg’oqchilikka qarshi kurashish uchun juda muhimdir. Sug’orishda suv tejash uchun drip-irrigatsiya usulidan dunyoda ilk bor ishlab chiqilgan innovatsion tizimdan foydalanib kelmoqda. Shuningdek, Isroilda qishloq xo’jaligi uchun foydalaniladigan suvning 85% qayta ishlangan suv hisoblanadi va sug’orish tizimlari sun’iy intellekt orqali kuzatiladi hamda boshqarib turiladi.

Xitoyda suv resurslarini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Aqlli irrigatsiya” loyihasi doirasida havo prognozi va sun’iy intellektga asoslangan irrigatsiya tizimlaridan foydalanilmoqda. Suv manbalari holatini aniqlash va resurslarni taqsimlash uchun dronlardan foydalaniladi. Xitoyda suv resurslarini boshqarishning raqamli tizimlari doimo rivojlanib bormoqda. Xitoy Suv resurslari vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Smart Water Management” tizimi suv ta’minoti, o’g’itlash va irrigatsiya tizimlarida yuqori samaradorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, “Water Pollution Control” texnologiyalari orqali Xitoyda suvdagi ifloslantiruvchi moddalar va chiqindilarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun raqamli monitoring tizimlari faoliyat yuritadi.

Yevropa Ittifoqi [10] suv xo’jaligida Copernicus dasturi orqali suv manbalarini monitoring qiladi va sug’orish hamda suvdan foydalanishni optimallashtiruvchi raqamli platformalarni qo’llaydi. Yevropa Ittifoqi so’nggi yillarda tabiiy resurslarni, xususan, suv manbalarini barqaror boshqarishga katta ahamiyat qaratmoqda. Qurg’oqchilik, iqlim o’zgarishi, aholi o’sishi va qishloq xo’jaligi ehtiyojlari suv resurslariga bosimni kuchaytirmoqda. Shu sababli Yevropa Ittifoqi suv xo’jaligida raqamlashtirish jarayonlarini jadal rivojlantirmoqda. Bu borada eng muhim tashabbuslardan biri — Copernicus dasturidir.

Turkiyada [11] suv resurslarini samarali boshqarish va raqamlashtirishda Davlat suv ishlari direksiyasi tomonidan suv obyektlari va irrigatsion kanallarida raqamli monitoring tizimlari joriy etilgan. Bu tizimlar suv sathini, oqimini va iste’molini real vaqtda kuzatishga imkon beradi. GIS (Geoaxborot tizimlari) platformalari Turkiyaning irrigatsiya va suv xo’jaligi tarmog’ida keng qo’llaniladi. Bu texnologiya sug’oriladigan yerlarning sug’orilishini kuzatish, suv yetkazib berishni rejalashtirish va aniq hisobotlar tayyorlashga yordam beradi. Turkiyaning suv tejamkorligiga asoslangan “SMART” irrigatsiya loyihalarida sensorlar va sun’iy intellekt texnologiyalari ishlatilmoqda. Bu tizimlar suv iste’molini avtomatik tarzda boshqarib, suv tejashga yordam beradi. Turkiyada ko’plab irrigatsiya tizimlari avtomatik klapanlar orqali boshqariladi, bu esa suvni ortiqcha isrof qilishning oldini oladi. Turkiya suv resurslarini tejash maqsadida qayta ishlangan suvdan qishloq xo’jaligida foydalanish bo’yicha yangi texnologiyalarni joriy qilmoqda. Shuningdek, suv manbalari va sug’orish yerlarini kuzatishda dronlardan foydalanish amalga oshirilmoqda, bu usul ko’proq to’g’ri ma’lumot yig’ish va resurslarni samarali taqsimlashni ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, yuqoridagi davlatlar tajribasidan kelib chiqib, suv resurslarini raqamlashtirish va samarali boshqarish uchun sensorlar, sun’iy intellekt, IoT, dronlar va raqamli platformalardan foydalanish muhimligini ko’rish mumkin. Bunday tajribalarni O’zbekiston sharoitiga moslashtirib amalga oshirish suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Suv xo’jaligini raqamlashtirish bo’yicha xorijiy davlatlar tajribasi turli texnologik yondashuvlarga asoslangan bo’lib, ularning ayrimlari O’zbekiston sharoitida ham amaliy ahamiyatga ega bo’lishi mumkin. O’zbekistonda suv xo’jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo’yicha chora-tadbirlar rasmiy me’yoriy hujjatlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda [2]. So’nggi yillarda suv xo’jaligi obyektlarida 11 446 ta “Aqlli suv” qurilmasi o’rnatildi. Bu qurilmalar orqali suvning hisobi onlayn rejimda monitoring qilinib, aniq hisob yuritish, foydalanish va operativ boshqarish imkoniyati kengaymoqda.

O’zbekiston BMT FAO, Jahon banki, KOICA, GIZ, ICARDA kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda raqamli sug’orish tizimlarini joriy qilish loyihalarini amalga oshirmoqda. Ayniqsa, qishloq xo’jaligida suv tejoychi texnologiyalarni ommalashtirish maqsadida tajriba hududlarda raqamlashtirish ishlari boshlangan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar (sensorlar, IoT, AI, dronlar, raqamli platformalar) suv resurslaridan samarali foydalanish, suv yo'qotishlarini kamaytirish va boshqaruv tizimini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida suv xo'jaligini raqamlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "Aqlli suv" tizimlari, xalqaro hamkorlikdagi loyihalar va raqamli monitoring tizimlari kelgusida suv tejash, adolatli taqsimot, moliyaviy shaffoflik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekistonda suv xo'jaligida quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni kuchaytirish tavsiya etiladi:

- IoT va sensor texnologiyalarini barcha suv tizimlariga joriy etish;
- sug'orishda sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish platformalarini yaratish;
- raqamli ma'lumotlar bazasini yaratib, suv sarfini avtomatik hisoblash tizimini kengaytirish;
- xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va ilmiy asoslangan dasturlar ishlab chiqish.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar joriy etilgan davlatlarda suv sarfi o'rtacha 30–50% gacha qisqargan. Sug'orish samaradorligi 40–60% gacha oshgan. Suv taqsimotida inson omili va xatolar 70% gacha kamaygan. Energiya va mehnat sarfi 15–25% gacha tejalgan. Sun'iy intellekt va sensor texnologiyalari orqali suv resurslarini real vaqtda boshqarish imkoniyati yaratilgan. O'zbekistonda 11 446 ta "Aqlli suv" qurilmasi o'rnatilib, suvdan foydalanish bo'yicha onlayn hisob tizimi yo'lga qo'yilgan. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda suv tejovchi va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish bo'yicha pilot loyihalar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni. – 2020-yil 10-iyul. – URL: <https://lex.uz/docs/-4892953>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suvni yetkazib berish bo'yicha xarajatlarni qoplash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 310-son qarori. – 2020-yil 22-may. – URL: <https://lex.uz/acts/-4823390>

3. AL-7823051503-raqamli "Suv xo'jaligi sohasida raqamlashtirish platformasi va onlayn monitoring tizimi – Hidro Smart Sistem axborot tizimi" loyihasi. – 2024–2025-yillar.

4. Rubicon Water. Official website. – URL: <https://www.rubiconwater.com>

5. Victoria State Government. Water and Irrigation Projects. – URL: <https://water.vic.gov.au>

6. FAO. Transforming Food and Agriculture to Achieve the SDGs: 20 Interconnected Actions to Guide Decision-Makers. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2018. – URL: <http://www.fao.org/3/ca0354en/CA0354EN.pdf>

7. Smart Agriculture in Japan. Custom Research Report. – URL: <https://customresearch.report/product/smart-agriculture-in-japan/>

8. AI, Robotics and New Agriculture in Japan // JapanGov. – 2025. – URL: https://www.japan.go.jp/kizuna/2025/06/ai_robotics_new_agriculture.html

9. IoT Technology in Precision Agriculture Is Transforming Farming // Business Insider. – 2025. – URL: <https://www.businessinsider.com/iot-technology-precision-agriculture-transforming-farming-2025-5>

10. Harnessing AI and IoT: Revolutionizing Water Resource Management // Devdiscourse. – 2025. – URL: <https://www.devdiscourse.com/article/science-environment/3250441-harnessing-ai-and-iot-revolutionizing-water-resource-management>

11. Less Is More: Netafim Is Turning Floods into Drips Worldwide, Increasing Farming Yields // The Times Weekly. – 2022. – URL: <https://thetimesweekly.com/2022/04/less-is-more-netafim-is-turning-floods-into-drips-worldwide-increasing-farming-yields/>

12. Israeli Water Tech Comes to Rescue of EU Farmers // The Times of Israel. – URL: <https://www.timesofisrael.com/israeli-water-tech-comes-to-rescue-of-eu-farmers/>

13. Copernicus. Official Portal. – URL: <https://www.copernicus.eu>

14. European Environment Agency. Water Data and Tools. – URL: <https://www.eea.europa.eu/themes/water>

15. FAO. WaPOR: Water Productivity Open-access Portal. – URL: <https://wapor.apps.fao.org> (murojaat qilingan sana: 11.06.2026).

16. Mapping Performance of Irrigation Schemes in Turkey // ResearchGate. – URL: https://www.researchgate.net/publication/346483671_Mapping_performance_of_irrigation_schemes_in_Turkey

17. Irrigation Systems and Water Management in Turkey // Journal of Applied Sciences. – URL: <https://sialert.net/fulltext/?doi=jas.2006.328.332>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>